



XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-92-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha tuman komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-146-son Qarori, tumanda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27-apreldagi 01-22/2-12/966-son xati ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i N.Mamadiyevaning xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashish hamda oldinda turgan vazifalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Sho'rchi tumani Kengashi huzuridagi "Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiya to'g'risida"gi Nizom 1-ilovaga, komissiyaning 2022-yil uchun ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha hududiy komissiyasi N.Mamadiyeva tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyning 5-sanasiga qadar viloyat komissiyasi ishchi organiga

axborot kiritib borsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Mamadiyeva hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Sattorova bilan birgalikda:

- xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, gender tenglik va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish hamda monitoring qilib borish;

- davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish, mahalliy davlat boshqaruvi organlari xodimlari orasida xotin-qizlarning ulushini oshirish, rahbarlik lavozimlariga tumandagi iqtidorli va faol xotin-qizlar nomzodlarini ilgari surishga ko‘maklashish va tavsiyalar berish;

- xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish gender tenglik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva) hamda “Jarayon” gazetasi tahririyati (B.Elmuurodova)ga ushbu qaror ijrosi bo‘yicha hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Sattorova hamda tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Mamadiyeva zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi**



Xudoyberganov B.X